IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Хужжат коди: RF69894127

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI TOSHKENT SHAHAR HUDUDIY BOSHQARMASI BOSHLIG‘INING**

# BUYRUG‘I

20 23 yil “ 26 ” dekabr № 155 Toshkent sh.

**“Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi” davlat muassasasini aksiyadorlik jamiyatiga o'zgartirish to‘g‘risida**

O'zbekiston Respublikasining “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi va “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktabrdagi 279-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat korxonalari va davlat muassasalarini xo‘jalik jamiyatlariga o'zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-son Farmoni va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2023-yil 24-noyabrdagi 343-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida,

**BUYURAMAN:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-son Farmonining 1-bandiga asosan Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg'armasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ta’sischiligida “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tashkil qilinishi belgilanganligi;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining 2023-yil 24-noyabrdagi 343-son buyrug‘ining 3-bandida “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi” davlat muassasasi mulkini “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati ustav fondiga (ustav kapitaliga) kiritish orqali xo‘jalik jamiyatini tashkil etish bo‘yicha hududiy boshqarmaning buyrug‘ini qabul qilinishi;

bunda, “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati ustav fondi (ustav kapitali) “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi” davlat muassasasi mulkining qoldiq (balans) qiymatiga teng miqdorda belgilash topshirilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi Qonunining 35-moddasida davlat muassasasi xo‘jalik jamiyati etib o‘zgartirilayotganda uning mulki inventarizatsiyadan o‘tkazilishi va xo‘jalik jamiyati ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori mulk baholashdan o‘tkazilmagan holda, davlat muassasasi mulkining qoldiq (balans) qiymati bo‘yicha belgilanishi ko‘rsatilganligi;

Davaktiv agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasining 2023-yil 12-dekabrdagi 135-son buyrug‘iga asosan “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi” davlat muassasasining mol-mulklari xatlovdan o‘tkazilganligi hamda mol-mulklari balans (qoldiq) qiymati 759 308 674,07 (yetti yuz ellik to‘qqiz million uch yuz sakkiz ming olti yuz yetmish to‘rt so‘m 7 tiyin) so‘mni tashkil etganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi” davlat muassasasi qayta tashkil etish yo‘li bilan “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilsin.

3. “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali 759 309 000,0 (yetti yuz ellik to‘qqiz million uch yuz to'qqiz ming) so‘m miqdorida tasdiqlansin va nominal qiymati 1 000 so‘mdan bo‘lgan 759 309 dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar 100 foiz O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ulushi sifatida joylashtirilsin.

4. “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi” davlat muassasasining shartnomalari, huquqlari va majburiyatlari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanishi ko‘rsatib o‘tilsin.

5. “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitalini shakllantirish uchun “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi” davlat muassasasining 759 308 674,07 (yetti yuz ellik to‘qqiz million uch yuz sakkiz ming olti yuz yetmish to‘rt so‘m 7 tiyin) so‘mlik mol-mulklari berilsin.

6. “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining ustavi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining direktori vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib Maxamatov Abbosxon Maxamat o‘g‘li tayinlansin.

8. “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining direktori v.v.b. A.M.Maxamatovga jamiyatni qayta tashkil etish bilan bog‘liq barcha ishlarni amalga oshirish, shu jumladan jamiyatning ustavini hamda aksiyalar chiqariluvini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlash vazifasi topshirilsin.

9. Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassis (X.Omonov) “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati ro‘yxatdan o‘tgandan so‘ng jamiyatning boshqaruv organi murojaatiga asosan 10 kunlik muddatda Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi” davlat muassasasi qayta tashkil etish yo‘li bilan “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilishi sababli mulk huquqini tasdiqlovchi davlat orderi rasmiylashtirib berilishini;

mazkur buyruqning nusxalarini Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi, “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJga hamda hududiy boshqarmaning tegishli bo‘limlariga yetkazilishini ta’minlasin.

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: RF69894127

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish boshqarma boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari J.Axmedov zimmasiga yuklatilsin.

**Boshqarma boshlig‘i** **A. Razzoqov**